XALQ DEPUTATLARI QO`RG`ONTEPA TUMAN KENGASHI

QARORI

170322 Qo`rg`ontepa tumani Andijon ko`chasi 1-uy tel: 74-723-32-78

2023 - yil 4 - sentabr VI-61-94-1-23-K/23 Qo‘rg‘ontepa tumani hokimligi

Qo‘rg‘ontepa tuman mahalliy budjetining 2023 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet Kodeksining 27-, 126-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24–moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Qo‘rg‘ontepa tuman mahalliy budjetining 2023 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan qo‘shimcha mablag‘lar **51 mln. 287,6 ming** so‘mni tashkil etganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimligining “2023 yil 2-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘shimcha mablag‘larni maqsadli va manzilli sarflanishi bo‘yicha” taklifi maqullansin.

3. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy budjetining 2023 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan ilovaga muvofiq mablag‘lar ajratilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (S.Yuldashev) va g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (A.Abdulatibov) bilan birgalikda ushbu qaror ilovasiga muvofiq ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda yo‘naltirilishini hamda moliyalashtirilishini ta’minlasin.

5. Tuman hokimligi matbuot xizmati (M.Ibroximov) mazkur qarorni

matbuotda e’lon qilsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi O.Xolmatov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi **Sh.X.Qo'ldashev**

Xalq deputatlari Qo‘rg‘ontepa tuman
Kengashining
2023-yil 4-sentabrdagi
VI-61-94-1-23-K/23-son qaroriga
1-ilova

Qo‘rg‘ontepa tuman mahalliy budjetining 2023 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish hisobi

T A Q S I M O T I

ming so‘mda

№	Sohalar nomi	Maqsadi	Ajratilayotgan mablag‘ miqdori	Mablag‘ ajratish uchun asos
1	Tuman hokimligi	“Ayollar daftari” jamg‘armasiga	7 693,0	PQ-5020, 05.03.2020 y.
2	Tuman hokimligi	“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga	7 693,0	PQ-92, 19.01.2022 y.
3	Tuman hokimligi	“Temir daftar” jamg‘armasiga	7 693,0	VM 213-F, 22.04.2020 y.
4	Tuman hokimligi	"Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga	15 386,0	PQ-5072, 13.04.2021 y.
5	Tuman hokimligi	Bolalar sog‘lomlashtirish va aholi salomatligini tiklashga ko‘maklashish jamg‘armasi	5 129,0	PQ-427 18.11.2022 y.
6	Tuman hokimligi	Jamoatchilik bilan ishlash bo‘yicha hokim maslahatchisi ish haqisi (saylov)	7 693,6	x
	Jami	**x**	**51 287,6**	**x**